

GLOBALASHUV DAVRIDA MIGRATSION JARAYONLARNING AXLOQIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI



To'rabayev Orif Abdumajid o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi, ya'ni mehnatga layoqatli aholini ish qidirib bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatlarga ko'chib yurishi natijasida odamlarning katta-katta guruhlar bilan bog'liq voqea-hodisalar natijasida ko'chib o'tgan hududiga o'z ijtimoiy-axloqiy qarashlari bilan ta'siri. Boshqa bir mamlakatdan o'z vataniga qaytib kelgan aholining submadaniyat ta'sirida shakllangan qarashlarining jamiyat axloqiy munosabatlarga ta'siri haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlari: demografik, siyosiy omillar, migratsiya, eksplutatsiya, millatchilik, irqchilik

Ma'lumki, jahon mehnat bozoridagi vaziyat boshqa barcha bozorlar qonuni kabi talab va taklif asosida aniqlanadi va bir necha ommillariga bog'liq. Bu omillar shartli ravishda iqtisodiy, demografik, siyosiy omillarga bo'lib, ular o'zaro bog'langan bo'ladi. Bular orasida iqtisodiy omillar asosiysi hisoblanadi, chunki qolgan barcha omillar pirovardida iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy imkoniyatlar mehnat sharoitlari va ish haqi o'rtasida yuzaga kelgan sezilarli farq ishchi kuchlarini mamlakatlararo ko'chib yurishiga sabab bo'luvchi muhim omil bo'lib hisoblanadi. Masalan, AQSH va Meksikadagi daromadlarning taxminan bir-biridan farq qilishi meksikalik ishchilarni AQShga ish qidirib ko'chib o'tishlarini asosiy sababi bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi paytda statistik ma'lumotlarga qaraganda dunyoda har bir o'n oiladan biri ko'chib yuradi, ulardan tashqari 4 dan 3 qismi ishchi kuchi migratsiyasiga to'g'ri keladi. Dunyo bo'yicha bunday ishchi kuchlarning umumiy soni 25 mln kishiga yaqin. Hozirgi vaqtda dunyo bo'layotgan siyosiy tartibsizliklar oqibatida bu sonlar yanada ko'payganligining guvohi bo'lib turibmiz.

Ma'lum bo'lishicha, 2021 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining jami 1 million 678 ming 400 nafar mehnat migrantlari xorijda faoliyat olib bormoqda.

Migrantlardan 481,1 ming nafari (28,7 foiz) ayollarni, 993,7 ming nafari (59,2 foiz) yoshlarni tashkil etmoqda.

Ayni paytda O'zbekistonliklardan Rossiyada 1 million 192 ming 800 kishi (71 foiz), Qozog'istonda 209 ming 300 (12 foiz), Janubiy Koreyada 62 ming 300 (4 foiz), Turkiyada 43 ming 200 (3 foiz), BAAda 5 ming 200 kishi va boshqa davlatlarda 165,6 kishi ishlamoqda.

Yuqoridagi qayd etilgan raqamlardan ya'ni 1 million 678 ming 400 nafar mehnat migranti asosiy qishmi Rossiya federatsiyasida ish faoliyatini olib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinli bir savol tug'iladi, 1 milliondan ortiq inson chet davlatlarda o'z ijtimoiy-axloqiy qarashlariga sodiq qola oldimi? Bizning milliy mentalitetimizni, donishmand xalqimizning xushmuomalalik, halollik, sobitqadamlik, sabr qanoat, kamtarlik, shijoat kabi axloqiy me'yorlarga qay darajada amal qila oldi ekan? Bu muammoli savolni berishimizdan asosiy sabab bugungi kunda yurtdoshlarimizning asosiy qismi Rossiya federatsiyasida ish olib borayotganligi va shu yer aholisining markaziy Osiyo migrantlariga nafrat ko'zi bilan qarayotganligini ijtimoiy tarmoqlarda uchrab turadi. Bu esa shundoq ham og'ir mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizga bunday salbiy hatti-harakatlar ularning yurtga bo'lgan muhabbati va sadoqatiga, soddaroq qilib aytganda axloqiy qarashlariga zarar yetkazishi mumkin. Sababi har qanday haqoratli holatda bir shaxsga emas, butun millatga qaratilgan bo'ladi. Soddaroq qilib aytganda shaxsiyati uchun emas, o'zga millat vakili bo'lganligi uchun unga nisbatan haqorat yog'ilyatganini anglab yetadi. Barcha davrlarda insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar siyosiy, huquqiy, iqtisodiy mezonlar asosida boshqarilganligi tabiiy jarayon. Lekin hech qanday siyosiy huquqiy normalarni inobatga olmasdan, umuminsoniy qadriyatlarni ahamiyatsiz qoldirayotgan axloqiy buzuvchi insonlarning millatchilik yoki irqchilik kabi

illatlarga berilishi oqibatida bugungi kunda mehnat migrantlariga nisbatan qo'pol munosabatda bo'layotganligi achinarli holat.

Albatta har doim ham migratsion jarayonlar salbiy oqibatlarga olib kelmaganligi, aksincha davlatlarning rivojiga katta hissa qo'shgan desak adashmagan bo'lamiz. Shimoliy va Janubiy Amerikaga Afrikadan qora tanli qullarni tashib keltirishi (eksplutatsiya) bir qator hozirgi rivojlangan davlatlarning vujudga kelishi va yuksalishiga sabab bo'lgan (AQSH, Kanada, Avstraliya, yangi sanoatlashgan mamlakatlar) jahon iqtisodiyoti rivojlanishining barcha bosqichlarida ishchi kuchi migratsiyasi jarayoni yuz berib keldi. Masalan, 1978-1988 yillar mobaynida turkiyalik xorijda ishlovchilarning yillik jo'natmalarining hajmi 893-2490 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan yoki Turkiya tashqi savdo balansi taqchilligining 45-100% ini qoplagan. Agarda 1989 yilda Turkiya, Portugaliya, Marokashda xorijda ishlovchilarning pul jo'natmalarimiqdori shu mamlakatlar eksporti hajmining 25-40%ini tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich Misrda 90%, Pokistonda 80% dan ko'proqni tashkil etdi. Nikaragua va Salvadorda esa pul jo'natmalari miqdori ularning eksport tushunchalaridan ham oshib ketgan. Ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlarning tashqi mehnat migratsiyasidan oladigan foydasi shundan iboratki, xorijda arzon ishchi kuchi jalb qilish mamlakat ichkarisida ish haqi o'sib borishining oldini oladi va natijada inflyatsiya xavfi bartaraf etiladi. Umumjahon xo'jaligi uchun mehnat resurslarini erkin ko'chib yurishi iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish imkoniyatini beradi.

Har qanday davlatning iqtisodiy o'sishi mazkur davlatda madaniyat, san'at, ta'lim, soliqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarining o'sishiga olib keladi.

Xususan, Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bevosita arab istilolari va arablarning Markaziy Osiyoga migratsiya jarayonida yuzaga keldi. Buning natijasida bizning diyorimizda islom dinining Qur'oni karimdan keyin turadigan hadisshunos muhaddis olimlarni yetishtirib chiqardi.

So'nggi tadqiqotlar Movarounnaxr hududlarida islomning ilk davrlarida ratsionalizmning keng tarqalganligi haqida guvoxlik beradi. yurtimizda tabiat va (Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon al-Beruniy) va falsafa (Abu Nasr al-Forobiy, Ibn Sino) ilmlari bilan bir qatorda ratsionalistik diniy ilmlar ham rivojlandi. Mu'taziliylar, Ismoililar, ilk sufiylar (al-Hakim at-Termiziy) madaniy hayot tarixida chuqur iz qoldirganligini bugun guvohi bo'lib turibmiz. Bunga javoban islom dunyosining markaziy hududlaridan tradisionalistlar (an'anachilar, ahl al-hadis) ta'limotlari kirib kela boshladi. Islom ta'limotini keyingi davrda paydo bo'lgan yangiliklardan (bid'atlardan) tozalash bu oqimning asosiy shiori bo'lgan. Hadislarni yig'ish, tartibga solish va faqat ishonchlilarini to'plamlarga jamlash borasida mislsiz ishlar olib borildi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom ad-Dorimiy, Abd ibn Xumayd al-Kashshiy, Kulayb ibn al-Haysam ash-Shoshiylar hadis to'plamlari bilan islom olamida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining shu jumladan bizning yurtimizga bo'lgan iliq munosabatlarini shakllantirishga ulkan hissa qo'shgan desak adashmagan bo'lamiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan holatlarda umumiy jihatdan bir xil ya'ni migratsion jarayonni ko'rishimiz mumkin lekin bu ikki holatda albatta yondashuvga bog'liq. Nega deganda Birinchidan Bizning hamyurtlarimiz Rossiya Federatsiyasiga faqat mehnat migranti sifatida bormoqda va o'sha davlat hududida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni arzon ishchi kuchi sifatida ta'minlab bermoqda. Shunga qaramasdan mehnat muhojirlariga davlat va jamiyat o'rtasida hurmatsizlik, qo'pollik, siyosiy jihatdan bosim bo'layotganini ko'rib turibmiz. Bizning yurtimizga kelgan arablar hech qanday ishchi kuchi emas o'z dinlarini targ'ib qilib keldilar hatto yerlik aholi dinni qabul qilmaguncha jon solig'ini ham joriy qildilar. Shunga qaramasdan Markaziy Osiyoda uyg'onish davri boshlanishiga sabab bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa ornida shuni ta'kidlashni joiz deb bildik. Migratsion jarayonlarni tahlil qilish natijasida tarix bizga shunga guvohlik beradiki migratsiya bu ijobiy jarayon hamda iqtisodiy-ma'naviy rivojlanishdagi vosita sifatida qarashligimiz mumkin. Tashqi mehnat migratsiyasidan ishchi kuchi eksport qiluvchi yoki jo'natuvchi mamlakatlarning oladigan foydasi shundan iboratki, uning yordamida mamlakat aholisini yetarli darajada ish bilan band bo'lmaganligini tufayli vujudga keladigan iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlardan kutiladi hamda xorijda ishlayotganlarning

yuborayotgan pul jo'natmalariga qaytib kelayotgan ishchilarning kasb va tip ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Buning uchun yerlik aholi ijtimoiy-axloqiy jihatdan yetuk xalq bo'lishi talab qilinadi, aks holda irqchilik, millatchilik kabi inson axloqiga zid holatlar shaxslar aro yoki davlatlararo muammolarning asil sababi bo'lib yuzaga chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov F.R., Saitxodjayev X.B. Sotsiologiya. – T., 2000. – B. 214 – 221.
2. Osipov G.V., Moskvichev L.N. Sotsiologiya. – M., 2003. – B. 713 – 745, 753 – 799.
3. Sotsiologiya / Prof. V. M. Karimova tahriri ostida. – T., 2000. – B. 161 – 200
4. Umumiy sotsiologiya / Ilmiy muharrir falsafa fanlari doktori M.S.Aliqoriyev. – T., 1999. – B. 146 – 176. 6. Xan S.M., Xan V.S. Sotsiologiya. – T., 1999. – S. 204–221. 7. Entoni Giddens. Sotsiologiya. – T., 2002. – B. 758–787.